



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbanov Xurshid Raupovich</i> O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN "MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIY MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI	51-54
<i>Sodiqova Yulduzzon Maxamat qizi</i> O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR (1991-2024 yy)	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXELOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)	65-69
<i>Mardiyeva Guzel Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING	
IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i>	
O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA	
IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i>	
O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	
BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI	
RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i>	
«ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ:	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i>	
TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI	
FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i>	
SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI	
VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i>	
XORIJY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA	
KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI T AHLILI	
(ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA	
INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i>	
“QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyevich</i>	
OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY	
OMILLARNING FALSAFIY T AHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i>	
ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ	
МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i>	
SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	181-185
<i>Karimov Yo'lqosh Ergashevich</i>	
TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Агзамходжаева Шахноза Сайдматмабовна</i>	
О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i>	
ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i>	
MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFİY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i>	
ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i>	
IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julianovna</i>	
"IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i>	
FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i>	
O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i>	
ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i>	
MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI.....	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i>	
ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i>	
PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i>	
VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i>	
COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhrribonu</i>	
THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i>	
DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i>	
RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Ли Адик</i>	
К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i>	
FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i>	
"KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI"	316-322
<i>Xatamov To'lqin Tojiddinovich</i>	
KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i>	
VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'ranova Dilshoda Adhamovna</i>	
OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i>	
RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i>	
ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i>	
ВОПРОСЫ ПРОТИВODEЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i>	
DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirluton Mirsharof o'g'li</i>	
JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i>	
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i>	
O'ZBEKISTONNING MIGRATSIIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Aбророва Камола Сайдмухторовна</i>	
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i>	
RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i>	
"HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'iy INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALAR"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i>	
INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i>	
VALYUTA QIMMATLIKARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i>	
KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i>	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i>	
"IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
"JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i>	
EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i>	
ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i>	
FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i>	
TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i>	
ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

“ETHICAL AND LEGAL ISSUES IN THE INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE INTO LAW ENFORCEMENT PRACTICE”

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

(PhD) candidate at the academy of Law enforcement of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article explores the legislative initiatives designed for the application of artificial intelligence technologies in legal practice, their potential, an analysis of artificial intelligence legislation in foreign countries, compliance with international standards, and the minimization of legal, ethical, and social risks associated with artificial intelligence based on international approaches, the necessity of formulating ethical and legal norms, along with an assessment of their future development prospects.

Keywords: “The Law on Artificial Intelligence”, advantages, risks and limitations, ethical principles, international standards.

“HUQUQNI QO’LLASH AMALIYOTIGA SUN’IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI”

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi,

O’zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqni qo’llash amaliyotida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash bo'yicha qonunchilik tashabbuslari va imkoniyatlari, xorijiy davlatlardagi sun’iy intellekt to'g'risidagi qonunchilik tahlili va xalqaro standartlarga muvofiqligi, xalqaro yondashuvlar asosida sun’iy intellekt bilan bog’liq huquqiy, axloqiy va ijtimoiy xavflarni minimallashtirish, axloqiy va huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish zaruriyati va kelajakdag'i istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: “Sun’iy intellekt to'g'risida”gi qonun, afzalliklar, xavflar, axloqiy prinsiplar, xalqaro standartlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N63>

Bugungi globallashuv sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalari huquqni qo’llash amaliyotida, xususan sud-huquq va prokuratura organlari tizimida ham keng qo’llanilmoqda. Zamonaviy texnologik taraqqiyotga erishgan davlatlarning odil sudlov va prokuratura tizimida jarayonlarni avtomatlashtirish, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish amaliyoti ortib bormoqda.

Jumladan, bunday davlatlarning sud-huquq amaliyotida “cyber-justice, e-justice, e-court, online court, online dispute resolution (ODR), e-litigation” nomlari ostida raqamlashib, yangi innovatsion yondashuvlar tatbiq etilmoqda. [1]

Shu bilan bir qatorda, surishtiruv va tergov organlari faoliyatida ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Jumladan, Koreya Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari (prokuratura, adliya, politsiya) va sudning jinoyat ishi qo’zg’atish, tergov harakatlari o’tkazish, sudlov va sud qarorlari ijrosini ta’minlash bo'yicha o’zaro axborot

almashinuvini ta'minlash va ma'lumotlardan birgalikda foydalanish maqsadida "KICS" tizimi joriy etilgan. [2]

Sun'iy intellekt texnologiyalarini sud-huquq tizimida va prokuratura organlari faoliyatida qo'llanishi, o'z navbatida, yangi huquqiy va axloqiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy huquqiy muhitda nafaqat huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, balki inson huquqlari, huquqiy tenglik, diskriminatsiya va huquqiy javobgarlikni aniqlash, ma'lumotlar maxfiyligini va sun'iy intellekt qarorlarining adolatligini ta'minlash kabi masalalarga ham e'tibor qaratish lozimligini nazarda tutadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlaridan allaqachon o'rin olib ulgurgan sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha axloqiy va huquqiy tartibga solishning xalqaro standartlari, strategiyalari va xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rganish asnosida, bizning huquqiy tizimimizda ham milliy qonunchilik modelini ishlab chiqishga erishish hozirgi kundagi dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

Bunday huquqiy tartibot – mamlakatda xavfsizlikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kafolatlash hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalaridan oqilona va mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Birlashgan Millatlar ta'lif, ilmiy va madaniy tashkiloti (UNESCO) tomonidan 2024-yil sentyabr oyida o'tkazilgan so'rov natijalari ijobjiy baholanmadı. Bunda sun'iy intellektning afzalliklariga qaramay, uning sud jarayonlarida qo'llanilishi jiddiy xavflarni ham keltirib chiqarganligi isbotlandi. Ayniqsa, 96 mamlakatning sud tizimi vakillari o'rtasida o'tkazilgan ushbu tadqiqot muhim bo'shlqnini yoritib berdi va jiddiy axloqiy hamda huquqiy xavotirlarni keltirib chiqardi. So'rov natijalari inson huquqlarining buzilishi ehtimolini, jumladan shaxsiy hayotga daxlsizlik, so'z erkinligi va kansitishga yo'l qo'ymaslikka doir axloqiy va huquqiy muammolarni aniqladi. E'tiborlisi, sud vakillarining 10 nafaridan 7 nafari huquqiy sohada sun'iy intellekt chatbotlaridan foydalanish xavflarini, xususan, xato ma'lumotlar va bирyoqlama yondashuv muammolarini tan olgan. [3]

Bunga sud tizimida sun'iy intellektdan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish uchun yo'riqnomalar, o'quv dastur, kurslarning mavjud emasligi sabab qilib ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sud tizimi xodimlarining 9% qismigina o'z tashkilotlarida sun'iy intellektdan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish uchun rasmiy yo'riqnomalar qabul qilingani yoki tegishli o'quv kurslari tashkil etilganini ma'lum qilgan. Yangi Zelandiya va Buyuk Britaniya ushbu bo'shlqnini to'ldirish maqsadida maxsus yo'riqnomalar ishlab chiqqan. Ushbu yo'riqnomalar maxfiylik, shaxsiy hayot daxlsizligi, tarafkashlikni oldini olish, javobgarlik, aniqlik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi muhim tamoyillarga urg'u beradi.

Ma'lumki, 2025-yilning yanvar oyida Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida bo'lib o'tgan "Digital Almaty 2025" Xalqaro raqamli forumida bosh vazir Abdulla Aripov ishtirot etdilar. Hukumat rahbari O'zbekistonning sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tayyorlik reytingida 87-o'rindan 70-o'ringa ko'tarilganini faxr bilan e'tirof etdi. Shunday bo'lsada, O'zbekiston kelgusi yillarda "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasi doirasida belgilab qo'yilgan ustuvor maqsadlarni amalga oshirish uchun sun'iy idrok tomonidan "jiddiy tahdidlarga" qarshi kurashda huquqiy himoyani ta'minlash uchun 2025-yildan taraqqiy etgan davlatlarning qonunchilik tajribasida mavjud bo'lgan sun'iy intellekt

sohasidagi axloqiy tamoyillarni milliy qonunchiligidan qurilish masalalari davlat rejasida mavjud ekanligi ta'kidlab o'tildi. [4]

Huquqshunos olim M.M.Mammasiddiqovning fikricha, sun'iy intellekt vositalarining avvalgi bir tomonlama yondashuvlarni takrorlashi yoki ma'lum toifadagi shaxslarning kamsitish ehtimolini hisobga olib, huquqiy tizimda sun'iy intellekt vositalarini tayyorlash va qo'llashda inson huquqlari ustuvorligi ta'minlanishi zarur va bu borada xalqaro standartlar, jumladan "Sud tizimlari va ularning muhitida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha Yevropa axloqiy Xartiyasi" talablariga rioya qilinishi lozim. Shuningdek, olim yaqin yillarda mamlakatimizda "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonunni qabul qilish jarayonida aniqlashtirilgan tushunchalar, xavf darajalari, sertifikatlashtirish mexanizmlari, xavf darajalarini baholashda real xavfning aniq mezonlariga qat'iy rioya qilish lozimligini nazarda tutadi. [5]

Huquqshunos olim S.S.Bozorovning ilmiy nuqtai nazariga ko'ra, jahonda sun'iy intellekt texnologiyalari va dasturlarini yaratish, ishlab chiqish, muomalaga kiritish, qo'llash va o'z navbatida, sun'iy intellekt mahsulotlarining huquqiy tabiati, o'ziga xos jihatlari, yuridik javobgarligi masalalarini tadqiq etish, shuningdek, sun'iy intellektning huquqiy maqomi, huquq subyektiligi, ya'ni sun'iy intellektga nisbatan "elektron shaxs" tushunchasini qo'llash uchun uning kelajakdagi huquqiy istiqbollarini o'rganish va bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligi e'tirof etiladi. [6]

A.A.Karsxiyaning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning ta'siri raqamli obyektlar, raqamli texnologik platformalar, yangi turdag'i raqamli xizmatlar, mulkiy fuqarolik muomalasi subyektlaridan foydalanish asosida zamonaviy fuqarolik -huquqiy tartibga solishni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlar bilan belgilanadi. [7]

Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy asoslangan fikrlarini e'tiborga olgan holda, sudlarning faoliyatiga sun'iy intellektni integratsiya qilish jarayonida afzalliklar bilan bir qatorda, turli huquqiy, axloqiy va texnik xavflarni ham hisobga olish lozimligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Bunday xavflarni oldini olish va huquqiy javobgarlikni belgilash maqsadida Asosiy qonun hisoblangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni, "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarni tahlil qilib chiqamiz.

Xususan, eng avvalo, sun'iy intellekt texnologiyalarini sud tizimiga uyg'unlashtirishda ijobiy tomonlarini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsianing 136-146-moddalari sudlar va prokuratura organlarining mustaqilligini kafolatlaydi. Bunda, sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish inson omilini kamaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita bo'lishi va fuqarolarning bu kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. [8]

Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali muhim sohaga oid ishlarni yoki topshiriqlarni taqsimlash, sudyalarining yoki prokuratura organlari xodimlarining ishni tanlab olish yoki boshqa ta'sirlar ostida bo'lish imkoniyatini kamaytiradi.

Shuningdek, Konstitutsianing 13-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida demokratikaning umuminsoniy prinsiplari asosida jamiyatda adolat ustuvor hisoblanadi. Bu holatda sun'iy intellekt prokuror qatnashgan sud jarayonlarida yoki suda raislik qilayotgan ishlarda inson omilidan kelib chiqadigan subyektivlik va noxolislikni kamaytirishi mumkin. Algoritmlar qat'iy huquqiy me'yorlarga asoslangan holda, bir xil holatlarga nisbatan bir xil

qarorlar qabul qilish imkonini beradi, ya'ni turli emotsiyalar yoki xatoliklar sababli yuzaga keladiganadolatsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Masalan, Jinoyat ishlari bo'yicha sndlarda bir xil huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar uchun turli sudyalar tomonidan turli jazolar tayinlanishi mumkin, sun'iy intellekt esa bunday holatlarda bir xil yondashuvni ta'minlaydi. Bundan tashqari, "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida, sndlarning asosiy vazifasi sifatida huquqiy nizolarni o'z vaqtida va samarali hal qilishi lozimligi belgilab qo'yilgan. [9]

Shuningdek "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 2-moddasida prokuratura organlarining asosiy vazifasi mamlakatda qonun ustuvorligini va qonuniylikni ta'minlash ekanligi mustahkamlangan. Sun'iy intellekt vositalari yordamida bu davlat organlarida ish protseduralari tezlashtirilib, bu huquqiy tizimlardagi ish yuklamasining kamayishiga yordam beradi. Bu holat, ayniqsa, katta hajmdagi ma'lumotlarni, ish hujjatlarini tahlil qilishda o'z samarasini ko'rsatadi. [10]

Masalan, Fuqarolik ishlari bo'yicha sndlarga kelib tushgan arizalarni dastlabki ko'rib chiqishda yoki prokuratura organlari tomonidan olib borilgan xizmat tekshiruvlarida, prokuror nazorati qaratilgan korxona, muassasa va tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan hujjatlarni sun'iy intellekt tizimi avtomatik ravishda aniq, to'liq yoki noto'g'ri ekanligini, ularning haqiqiyligini aniqlab, ulardagi mavjud kamchiliklarni tasniflay oladi va huquqiy tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining yana bir asosiy jihat shundaki, u inson resurslari va xarajatlarni optimallashtirishga yordam beradi, ya'ni sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar oddiy va takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali inson resurslarini yanada muhim vazifalarga yo'naltirish imkonini beradi. Bu esa sud va prokuratura tizimi uchun iqtisodiy samaradorlikni va vaqtini unumli taqsimlashini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik masalasini huquqiy jihatdan aniq tartibga solish, sud va prokuratura organlari tizimidagi inson omilining o'rnnini to'g'ri belgilash va texnologik xavfsizlikni ta'minlash ham global miqyosda asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Sun'iy intellektni sud jarayonlarida va prokuratura ish yurituvida qo'llashda quyidagi xavf va cheklovlarga duch kelamiz:

1. *Oshkoraliq (transparency) va hisobdorlikning (accountability) buzilishi xavfi*, ya'ni sun'iy intellekt algoritmlari qaror qabul qilish jarayoni murakkab bo'lgani bois, ularning qanday ishlashini tushunish yoki izohlash inson tomonidan qiyin bo'lishi mumkin. Bu sud qarorlari va prokuratura faoliyatining oshkoraliqi va hisobdorligiga putur etkazishi mumkin. Negaki, sud qarorlari odatda ochiq sud majlislari orqali qabul qilinadi va ularning natijalari jamoatchilikka ma'lum qilinadi, o'z navbatida prokuror va sudyalar o'z qarorlari uchun javobgar bo'lishlari kerak. Bu borada algoritmik oshkoraliqka doir qonunlar ishlab chiqish zarur.

2. *Dasturiy xatoliklar va noto'g'ri qarorlar xavfi*, ya'ni sun'iy intellekt vositalari noto'g'ri, ishonchsz yoki noto'liq ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishi mumkin, bu sudlar va prokuratura faoliyatiningadolatsiz yuritilishiga, ya'ni odillik tamoyillarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

3.Sun'iy intellektga haddan tashqari ishonish xavfi (avtomatlashtirilgan adolatsizlik), ya'ni bunda sudyalar yoki prokurorlar sun'iy intellekt qarorlariga haddan tashqari tayanib, insoniy tekshiruvni chetlab o'tishlari mumkin.

Masalan, "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida sudlarga – fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish kabi asosiy vazifalar yuklangan. Shu sababli, sudyalar sud ishlarini ko'rib chiqib, adolatli qarorlar qabul qilishlarida sun'iy intellektning imkoniyatlari tayanib qolmasdan, asosiy mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari lozim. Buning natijasida sudlar faoliyatining asosiy maqsadi hisoblangan "odil sudlov"ga erishiladi.

Shuningdek, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni 14-moddasida davlat xizmatchilarining mas'uliyati va shaxsiy qaror qabul qilish huquqi mustahkamlab qo'yilgan. [11]

4. Shaxsiy ma'lumotlarning himoya qilinmasligi xavfi, ya'ni sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanganda, shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi va saqlanishi juda muhimdir. Sud va jinoyat ishi bilan bog'liq yig'ilgan shaxsiy ma'lumotlar sun'iy intellekt vositalari orqali noto'g'ri qayta ishlanishi, qonunga zid tarzda yoki belgilangan maqsadlar uchun ishlatilmagan taqdirda, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish xavfi yuzaga keladi. Buning natijasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi qoidalari buziladi.

Masalan, "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunning 28-moddasida "Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etish taqiqlanadi," mazmunidagi qat'iy qoida mustahkamlangan. Bu qonun shu kabi xavflarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlarni faqatgina to'g'ri maqsadlar uchun va qonun doirasida ishlatilishini ta'minlashni nazarda tutadi va axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi, saqlanishi va ishlatilishida maxfiylikni ta'minlashga qaratilgan qat'iy talablarni o'rnatadi. [12]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141²-moddasida shaxsiy ma'lumotlarni egasining roziligesiz noqonuniy oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. [13]

5. Sun'iy intellektning tartibsizlik, ya'ni noaniq yoki reprezentativ bo'limgan o'quv ma'lumotlari asosida algoritmik biryoqlama (tarafkashlik) munosabatlar (bias) xavfi, ya'ni sun'iy intellekt algoritmlari mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda noto'g'ri yoki noxolis qarorlar chiqarishi mumkin, buning natijasida inson huquqlari va adolat tamoyillarini buzish xavfi yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 23-moddasida mustahkamlangan "aybsizlik prezumpsiysi" qoidasi sun'iy intellekt tizimlari tomonidan e'tiborga olinishi kerak. Har qanday texnologik qarorlar shaxsni aybdor deb belgilashdan oldin yetarli asosga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, noto'g'ri chiqarilgan qarorlar sudlanuvchi yoki da'vogar huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. *Masalan, noto'g'ri aniqlangan yuz tanish texnologiyasi aybsiz shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilishi yoki sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan qarorlar ba'zida, diskriminatsiya asosida fuqarolarning irqi, yoshi yoki boshqa omillarga asoslanib, da'vogarning talabini rad etishi ehtimoli mavjud va h.k. [14]*

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi bo'yicha sud qarorlari uchun sudyalar shaxsan javobgar hisoblanadi. Ammo sun'iy intellekt asosida chiqarilgan qarorlar uchun kim javob berishi: dastur ishlab chiquvchilarimi, sud tizimi

yoki sudya javobgar bo'ladimi kabi savollarga hozircha javob yo'q va bu borada huquqiy bo'shilq mavjudligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

6. *Noto'g'ri qarorlar va texnik xatoliklar xavfi sababli*, amaldagi protsessual kodekslar doirasida sun'iy intellekt tizimlari murakkab nizolarni noto'g'ri baholashi yoki noto'g'ri qarorlar chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 30-moddasiga ko'ra, sun'iy intellekt murakkab moliyaviy hujjatlarni noto'g'ri tahlil qilib, iqtisodiy nizolarda noto'g'ri qaror chiqarishi va bu korxonalarga katta moliyaviy zarar keltirishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. [15]

Jumladan, Konstitutsiyamizning 136-moddasida va uning asosida qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 9-moddasida "sudyalarining mustaqilligi prinsipi" belgilab qo'yilgan. Bu moddalarda sudyalarining mustaqilligi, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunishlari, sudyalarining odil sudlovnini amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yimasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, sudyalar muayyan ishlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi, ularning daxlsizlik kabi huquqlari qat'iy qoida sifatida mustahkamlab qo'yilgan. *Masalan*, sun'iy intellekt nazorat qilinmasa, sudning xolisligi xavf ostida qoladi. Sudyalar har qanday tashqi bosimdan xoli qaror qabul qilishlari kerak. Sun'iy intellekt esa faqatgina huquqiy tahlil, hujjatlarni tekshirish, murakkab sud jarayonlarida yordamchi vosita sifatida qaralishi mumkin, ammo uning hukm chiqarish jarayoniga bevosita aralashuvi sudlarning mustaqillik prinsipiga zid bo'ladi.

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, sun'iy intellektdan faqatgina yordamchi vosita sifatida foydalanishimiz mumkin, adolatli qarorni qabul qilishda inson omiliga tayanish lozimligini, ya'ni sudyalar bajarishi kerakligini nazarda tutamiz. Rivojlangan davlatlar tajribasi bu jarayonda muhim o'rnak bo'la oladi.

Bu borada sud-huquq tizimida sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha axloqiy va huquqiy me'yirlarni belgilab bergen, o'z milliy modelimizni yaratishga zamin bo'ladigan, xalqaro standartlardan biri hisoblangan Yevropa kengashining 2018-yil 3–4-dekabrda qabul qilgan "Sud tizimlari va ularning muhitida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha Yevropa axloqiy Xartiyasi"dir. [16] Bu Xartiya sun'iy intellekt texnologiyalarini sudlar faoliyatida qo'llashda inson huquqlari ustuvor bo'lishi kerakligini ta'kidlab, inson huquqlari, adolat va demokratik tamoyillarga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini tartibga solish va joriy etish qoidalarini belgilaydi.

O'zbekiston uchun ushbu Xartiya asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini sud tizimiga joriy etish nafaqat texnologik innovatsiyalarni amalga oshirish, balki huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan muvozanatni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu axloqiy Xartiya zamонавији sud-huquq tizimida sun'iy intellektdan faqatgina adolat samaradorligi va sifatiga erishishni maqsad qilgan holda *barcha qoidalarini beshta asosiy prinsiplar asnosida ishlab chiqqan. Jumladan:*

Asosiy huquqlarga hurmat prinsipida sun'iy intellekt vositalari va xizmatlarini loyihalash va joriy etishda asosiy huquqlarga muvofiqligini ta'minlashni nazarda tutadi. Bunda sun'iy intellekt sud qarorlari va ma'lumotlarini qayta ishlayotganda, Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi (ECHR) va Shaxsiy Ma'lumotlarni Himoya Qilish Konvensiyasi (ETS) tomonidan kafolatlangan asosiy huquqlarga to'liq rioya qilgan holda aniq maqsadlarga xizmat qilishi kerak. Bu Xartianing asosiy huquqlarga hurmat prinsipi qonun ustuvorligi va sudyalar mustaqilligi prinsiplari doirasida qo'llanilishi lozimligini, shu sababli, axloqiy tamoyillar asosida yaratilgan

yoki inson huquqlarini hurmat qiladigan yondashuvlarga ustuvorlik berilishi kerakligini uqtirmoqda.

Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsipida shaxslar va shaxslar guruhlari o'rtasidagi har qanday kamsitishni rivojlantirish yoki kuchaytirishning oldini olish kerakligini ta'kidlaydi. "Hassas" ma'lumotlarga asoslangan (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) irqiy yoki etnik kelib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy holat, siyosiy qarashlar, diniy yoki falsafiy e'tiqodlar, kasaba uyushmalariga a'zolik, genetik ma'lumotlar, biometrik ma'lumotlar, sog'liq bilan bog'liq ma'lumotlar.

Sifat va xavfsizlik prinsipida sud qarorlari va ma'lumotlarini qayta ishlashda sertifikatlangan manbalar va ishonchli ma'lumotlardan, ko'p tarmoqli yondashuv asosida yaratilgan modellar va xavfsiz texnologik muhitdan foydalanishni nazarda tutadi.

Shaffoflik, xolislik vaadolat prinsipida ma'lumotlarni qayta ishlash usullarini ochiq va tushunarli qilish, tashqi auditlarga ruxsat etish lozimligini belgilaydi.

Foydalanuvchining nazorati ostida prinsipi foydalanuvchining da'vo ishi sud jarayonidan oldin yoki sud protsessida sun'iy intellekt orqali ko'rib chiqishi haqida xabardor qilinishi va bunga qarshi chiqish huquqiga ega bo'lishini nazarda tutadi.

Shuningdek, 2025-yil 2-fevraldan boshlab, Yevropa Ittifoqida "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonun (The Artificial Intelligence Act) rasman qabul qilindi. [17]

Bu Akt o'z qoidalarini bosqichma bosqich amalga kiritishni nazarda tutib, uning dastlabki bosqichi sun'iy intellektning ayrim xavfli qo'llanish usullarini taqiqlaydi va sun'iy intellekt bo'yicha savodxonlikni oshirish talablarini o'z ichiga oladi. Ushbu Aktga ko'ra, sun'iy intellekt tizimlarini yaratadigan yoki ulardan o'z faoliyatlarida foydalanadigan tashkilotlar kadrlar salohiyatini rivojlantirish va sun'iy intellekt sohasida mutaxassislar tayyorlash vazifasi mavjud.

Shuningdek, "Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Nizom (GDPR) Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni ta'minlaydigan eng muhim huquqiy hujjatlardan biridir. [18] Bu qonun, ma'lumotlarni faqat kerakli va qonuniy maqsadlar uchun ishlatilishini, ma'lumotlarni to'g'ri himoya qilinishini va shaxsiy ma'lumotlarga bo'lgan huquqlarni ta'minlashni nazorat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlarining natijalari va qarorlari inson huquqlarini inobatga olgan holda qabul qilinishini talab qiladi.

Sun'iy intellektni tartibga soluvchi yana bir muhim xalqaro huquqiy hujjat hisoblangan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2024-yil 21-mart kuni "Barqaror rivojlanish uchun xavfsiz, himoyalangan va ishonchli sun'iy intellekt tizimlarining imkoniyatlaridan foydalanish" nomli rezolyutsiyasi qabul qilindi.[19] Ushbu rezolyutsiyada sun'iy intellektdan hech kim tinchlikka tahdid solish yoki inson huquqlarini poymol etish uchun foydalanishga haqli emasligi ta'kidlab o'tilgan. Sun'iy intellektni tartibga solish va innovatsion texnologiyalar bir-birini inkor qilmasligi, aksincha, uyg'un va chambarchas bog'liq tushunchalar ekanligi e'tirof etilgan.

Xulosa o'rnidA shuni aytish kerakki, O'zbekiston qonunchiligidagi sun'iy intellektni sud jarayonida qo'llash jarayoni ko'plab afzalliklarni taqdim etadi, biroq, inson huquqlarining buzilishi, shaffoflikning yetishmasligi, javobgarlik masalalarining noaniqligi va texnik xatoliklar kabi muammolar ham mavjud. Shu sababli, O'zbekistonning mavjud me'yoriy hujjatlari asosida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ehtiyyot choralarini ko'rish, qonuniy tartibda qo'shimcha normativlar ishlab chiqish va sun'iy intellekt qarorlarini inson nazoratisiz to'liq

qabul qilmaslik lozim. Sun'iy intellekt texnologiyalarining sud tizimida muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun huquqiy, texnik va axloqiy me'yorlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarur.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikr-mulohazalaridan, xalqaro huquqiy standartlar va xorijiy davlatlar sud amaliyotidan kelib chiqqan holda, sud jarayonlariga sun'iy intellektni integratsiya qilishning axloqiy va huquqiy qoidalarini takomillashtirish maqsadida *quyidagi tavsiyalarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi:*

birinchidan, sud jarayonlarida va prokuratura organlari faoliyatida sun'iy intellektdan faqatgina maslahatchi, yordamchi vosita sifatida foydalanish va inson omilining asosiy ustuvorligiga urg'u berish lozim.

ikkinchidan, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish- sun'iy intellekt noto'g'ri qaror qabul qilgan holatlarda javobgarlik masalasini aniqlash kerak.

uchinchidan, sun'iy intellektdan foydalanishda ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash choralar ko'rilgan taqdirda, yuz berishi ehtimoli mavjud bo'lgan xavf-xatarlar va huquqiy muammolarning oldi olingan bo'ladi.

to'rtinchidan, fuqarolarga sun'iy intellekt texnologiyalarining qanday ishlashi va huquqni qo'llash amaliyotidagi roli haqida keng qamrovli ma'lumotlar berish lozim va buning natijasida, kelgusida fuqarolarning bu kabi davlat organlariga bo'lgan ishonchini yanada oshiradi.

beshinchidan, inson huquqlari va sun'iy intellekt o'rtasida muvozanatni saqlash va sun'iy intellekt qarorlariga inson nazoratini joriy etish lozim.

oltinchidan, sun'iy intellektdan mas'uliyatli va axloqiy foydalanish uchun sudyalar va prokuratura xodimlari uchun xalqaro yondashuvlar asosida maxsus yo'riqnomalar, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va o'quv kurslari asosida "IT" bo'yicha ta'lim berilishi lozim.

yettinchidan, texnologik xavflarni baholash mexanizmini joriy etish uchun mustaqil ekspert komissiyalari faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

sakkizinchidan, sun'iy intellektdan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida xavfsiz foydalanish maqsadida, huquqiy tartibga solish bo'yicha Yevropa xartiyasi, Yevropa Ittifoqining "Sun'iy intellekt to'g'risida"gi qonuni, BMT Bosh Assambleyasining Rezolyutsiyasi, Aktlari va Yevropa, Osiyo davlatlari tajribasi asosida sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy tizimga joriy etishda milliy, ijtimoiy va huquqiy sharoitlarni inobatga olgan holda, yagona milliy qonunchilik modelini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. From digitisation to digital transformation: A case for online courts in commercial disputes? Draft Discussion Paper. European Bank for Reconstruction and Development. 2020. R 4.
2. Koreya Respublikasi Oliy prokuraturasi veb-sayti // <https://www.spo.go.kr/site/eng/01/1010200000002018120605.jsp>.
3. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf00>.
4. <https://www.spot/uz/oz/2025/02/01/ai-development>.
5. "Imkoniyat, xatar va kafolatlar", xammualliflar y.f.d., professor M.M.Mamasiddiqov, M.M.Boboev. "Huquq" interfaol gazetasining 2025 yil 27 fevraldag'i, 9-soni.
6. "Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik", muallify.f.d., Bozarov S.S. (yuridik fanlari doktori DSc. Dissertasiyasi avtoreferati)- Toshkent:.-2023.65-b.
7. Карчхия А.А. Гражданко-правовая модель регулирования цифровых технологий / /Дисс. докт. юрид. наук. – М., 2019. С. 12-13.

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri), 30.04.2023. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
9. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri), 28.07.2021 yildagi O'RQ-703-son. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
10. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri), 29.08.2001 yildagi O'RQ-257-II-son. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
11. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri), 2022 yil 8-avgust, O'RQ-788-son. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
12. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" gi Qonuni. -2019 yil 2-iyul, O'RQ-547-son // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, www.lex.uz.
13. <https://lex.uz/mact/-111453>;
14. <https://lex.uz/mact/-111460>;
15. <https://lex.uz/mact/-3523891>;
16. <https://www.europarl.europa.eu/cmdata/196205/Council/EuropeanEthicalCharter> in judicial systems;
17. <https://www.wsgr.com/en/insights/the-eus-ai-act-starts-to-apply-as-of-february-2-2025.html>;
18. <https://gdpr-info.eu/>;
19. <https://news.un.org/en/story/2024/03/1147831>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 4 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).